Boshlang`ich ta’lim o`qituvchilari uchun test banki (2-toifa va mutaxassis o`qituvchilar uchun)

1. … — tanishuv mashqida qo’llaniladi**.**
A. **“Bingo” ***
B. “BBB” jadvali
C. “Q’shilaman/qo’shilmayman”
D. “T-sxema”

2. “BBB” jadvalidan darsning qaysi qismida foydalangan ma’qul?
1. Darsning boshida tashkiliy qismida
2. Darsning boshida darsga jalb qilish maqsadida
3. Yangi mavzu bayonida
4. Dars yakunida
A. 2,3,4.
B. 2,4*
C. 1,4.
D. 1,3.

3. ……o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim yondashuvi

A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi

B. Individual ta’lim tizimi

C. Interaktiv ta’lim tizimi

D. Raqamli ta’lim tizimi

4. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

A. Individual yondashuv , o‘quvchining faol ishtiroki

B. Individual yondashuv

C. O‘quvchining faol ishtiroki

D.To’g’ri javob yo’q

5. O‘quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlari, ehtiyojlari va o‘rganish tezliklarini hisobga olib, ta’limni individual asosda tashkil qilish -bu

A. Differensatsiya

B. Moslashuvchanlik

C. O‘zgaruvchanlik

D. Barqarorlik

6. ……..shaxsiy ehtiyojlarga mos ta’lim materiallarini taqdim etadi.

A. Mobil ilovalar

B. Onlayn ta’lim platformalari

C. Kinofilmlar

D. Ko’rgazmali vositalar

7. ..... bu har bir professionalning o‘z malakasini oshirish, tajriba orttirish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidir.

A. Kasbiy faoliyatni rivojlantirish

B. Individual yondashuv

C. Shaxsiy faoliyatni rivojlantirish

D. To’g’ri javob yo’q

8. – o‘z-o‘zini anglash va takomillashtirish.

A. Refleksiya

B. Motivatsiya

C. Animatsiya

D. Karera

9. Shaxsiy rivojlanish nima?

A. Yangiliklarga moslashish, yangi imkoniyatlarni ochish va o‘z salohiyatini oshirish.

B. Tanlov raqobatdoshligini oshirish, yangiliklarni olish va karerani rivojlantirish.

C. Yangiliklarni baham ko‘rish, fikr almashish va hamkorlik asosida muammolarni yechish.

D. Jamoaviy loyihalar uchun yangi bilimlar va ko‘nikmalarni birgalikda o‘zlashtirish.

10. Bilishni baham ko‘rish nima?

A. Yangiliklarni baham ko‘rish, fikr almashish va hamkorlik asosida muammolarni yechish.

B. Tanlov raqobatdoshligini oshirish, yangiliklarni olish va karerani rivojlantirish.

C. Yangiliklarga moslashish, yangi imkoniyatlarni ochish va o‘z salohiyatini oshirish.

D. Jamoaviy loyihalar uchun yangi bilimlar va ko‘nikmalarni birgalikda o‘zlashtirish.

11. O‘z ustida ishlash nima?

A. O‘z kamchiliklari ustida ish olib borish va o‘zini doimiy rivojlantirish.

B. Kompyuter ko‘nikmalarini oshirish.

C. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish.

D. Jamoaviy yangi bilimlar va ko‘nikmalarni birgalikda o‘zlashtirish.

12. Ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

A. Kommunikativ kompetensiya *
B. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
C. O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
D. Milliy va umummadaniy kompetensiya

13. Davlat ta’lim standartining maqsadi –…..iborat.

1. -umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan *
2. -rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan
3. -umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan
4. -kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash; ta’lim va uning pirovard natijalari, o‘quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek, ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlashdan

14. Test savoli. Davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlari ketma-ketligi qaysi javobda to’g’ri berilgan?

A. baholash tizimi ; umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi; umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari; umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi

B. umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari; baholash tizimi; umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi; umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi
C. umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi; umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi; umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari; baholash tizimi*
D. umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi; umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari; baholash tizimi; umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi

15. Test savoli. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun qaysi hujjat asos hisoblanadi?

1. O‘quv dasturi
2. Tayanch o‘quv reja *
3. Malaka talablari
4. Baholash tizimi

16. Test savoli. Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi - …..iborat.

A. davlat ta’lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta’lim sifatini ta’minlashdan *
B. ta’lim sifatini ta’minlashdan
C. davlat ta’lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlashdan
D. zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta’lim sifatini ta’minlash; tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish; umumiy o‘rta ta’lim muassasasida davlat ta’lim standartlari talablari bajarilishi va ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillardan

Mavzu raqami. 3.1.2

17. Test savoli. Darslik- nima?

A. davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan kitob
B. o’quv fanining mavzulari to’liq yoritilgan,uning asoslari mukammal o’zlashtirishga qaratilgan, o’quv faninig maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan kitob
C. nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy- tajriba va sinov mashqlarini qamrab oldan didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o’quv fanining mavzulari to’liq yoritilgan,uning asoslari mukammal o’zlashtirishga qaratilgan, o’quv faninig maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan kitob
D. davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o’quv fanining mavzulari to’liq yoritilgan,uning asoslari mukammal o’zlashtirishga qaratilgan, o’quv faninig maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab

chiqilgan,nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy- tajriba va sinov mashqlarini qamrab oldan kitob shaklidagi o’quv nashri.

18. Kommunikatsiya-qiziquvchanlik ,tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati.

A.To‘g‘ri
B.Noto’g’ri*

19. Darsliklar uchun belgilangan nashr vaznini sinflar kesimida moslashtiring.

Nashr vazni

1. 300 grammdan;
2. 400 grammdan;
3. 500 gramdan;
4. 600 grammdan

Sinflar

1.7-9-sinflar

2.5-6-sinflar

3.1-4-sinflar

4.10-11-sinflar

A. *1-3, 2-2, 3-1, 4-4

B. 1-4, 2-2, 3-1, 4-3

C. 1-1, 2-3, 3-2, 4-1

D. 1-2, 2-1, 3-4, 4-3

20. Kreativlik - g‘oyalarni rivojlantirish, g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

A.To‘g‘ri *
B.Noto’g’ri

21. “Paint” dasturida rasm chizish. “Paint” dasturida asboblar. “Paint” dasturida turli shakllarni chizish. Ranglar palitrasi. “Paint” dasturida amaliy ish 3-sinfda o'rgatiladi

A.To‘g‘ri *

B.Noto’g’ri

22. PIRLS - xalqaro baholash tadqiqotining maqsadlarini belgilang.

1. global miqyosida ta’lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish;yangi yoki qayta ko‘rib chiqilgan ta’lim siyosatining ta’sirini kuzatib borish

2. ta’limning zaif nuqtalarini belgilash va o‘quv islohotini amalga oshirish,PIRLS ma’lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o‘qitish va o‘qishni takomillashtirish

3. o‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi

4. adolatlilikni kuzatish yoki qo‘shimcha sinflarda o‘quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish,o‘qishni va o‘qitishni o‘rganish

A. 1, 2, 3

B. 1, 2, 4*

C. 1, 3, 4

D. 2, 3, 4

23. PIRLSda matn hajmi 1000 ta so‘zgacha, o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun ….. ta so‘z bo‘lishi lozim

A. 200-300

B. 350-400

C.300-400

D. 400-500*

24. TIMSS xalqaro tadqiqotida dasturiy ta'minot nima maqsadda qo’llaniladi?

1.sinflar tanlash uchun

2.tadqiqot sifatini kuzatish uchun

3.o’quvchilarni tanlash uchun

4.ma'lumotlarni kiritish uchun

A.1, 2, 3

B.1, 2, 4

C.1, 3, 4*

D.2, 3, 4

25. TIMSS tadqiqotning maqsadi….. –iborat

1.turli ta’lim tizimiga ega mamlakatlarda umumta’lim maktablari o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha umumiy ta’lim darajasini qiyosiy baholash
2.aniq fanlar bo‘yicha umumiy ta’lim darajasini qiyosiy baholash
3.tayyorgarlik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash
4.umumta’lim maktablari o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha umumiy ta’lim darajasini aniqlash
A.1, 3*

B.1, 2, 3

C.1, 3, 4

D.2, 3

26. Amalga oshirilgan daraja -

A. - ta'lim muassasasi uchun ijtimoiy buyurtma,ta'limning rasmiy maqsadlari va jamiyatda to'plangan pedagogik va uslubiy g'oyalar yig'indisi shakllanadi, bu o'quv dasturlari va o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topadi.
B. - ta'lim muassasasida o'qitish natijalari,o'quvchining ta'limdagi yutuqlari, uning bilimi, ko'nikma va xulq-atvori baholanadi.
C. -davlat ta’lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlash
D. -bu ta'lim muassasasining haqiqiy o'quv jarayoni,ta'lim muassasasi o'qituvchisi real ta'lim jarayonida ta'limning rejalashtirilgan mazmunini shakllantiradi*

27. PIRLS topshiriqlarini baholash darajalarini ballarini moslashtiring

1. Matnni oliy darajada tushunish
2. Matnni yuqori darajada tushunish
3. Matnni o`rta darajada tushunish
4. Matnni quyi darajada tushunish

1.400-474 ball
2.625-1000 ball
3.575-624 ball
4.475-574 ball

A.1- 2; 2-3; 3-4; 4-1*
B. 1- 3; 2-1; 3-4; 4-3
C. 1- 4; 2-3; 3-2; 4-1
D. 1- 1; 2-3; 3-2; 4-4

28. Badiiy va axborot matnlarni o‘qishda o‘qish ko‘nikmalarining to‘rt turini ketma-ketligi qaysi javobda to’g’ri berilgan?

A.Aniq korinishda berilgan ma’lumotni topa olish. Xulosalarni shakllantirish. Ma’lumotlarni umumlashtira olish. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.
B. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish. Aniq korinishda berilgan ma’lumotni topa olish. Xulosalarni shakllantirish. Ma’lumotlarni umumlashtira olish.
C. Xulosalarni shakllantirish. Ma’lumotlarni umumlashtira olish. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish. Aniq korinishda berilgan ma’lumotni topa olish.
D. Ma’lumotlarni umumlashtira olish. Aniq korinishda berilgan ma’lumotni topa olish. Xulosalarni shakllantirish. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

29. **Badiiy va axborot matnlarini matnlarni o`qish jarayonida, o`quvchi quyidagi topshiriqlarni bajara olsa, muallifning umumiy g’oyasini tushunish uchun matnning tafsilotlarini bog’lash;qahramonlarning his-tuyg’ularini, niyatlarini, maqsadlarini va xarakter xususiyatlarini tushunish uchun voqealar va xarakatlarni sharhlay olish ko`nikmalari mavjud bo`lsa, matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni eslab qolish va sharhlay olsa qanday baholanadi?**

A.Matnni oliy darajada tushunish *

B.Matnni yuqori darajada tushunish

C.Matnni o`rta darajada tushunish

D.Matnni quyi darajada tushunish

30. Matnni o`rta darajada tushunish …..?
A. matndan aniq tahriflangan tafsilotni topish;matnni boshida keltirilgan aniq bir xabarni topish va belgilash.

B. qahramonlarning harakatlarini aniq talqin qilish va oddiy tushuntirish bera olish;matndan ikki-uch aniq ma’lumotlarni ajrata olish. *

C. matnni turli qismlarida yashiringan tafsilotlar mazmunini aniqlash;yaxlit bir matndan va murakkab jadvallardan kerakli ma’lumotlarni topish va sharhlash.

D. muallifning umumiy g’oyasini tushunish uchun matnning tafsilotlarini bog’lash; qahramonlarning his-tuyg’ularini, niyatlarini, maqsadlarini va xarakter xususiyatlarini tushunish uchun voqealar va xarakatlarni sharhlay olish

ko`nikmalari mavjud bo`ladi;matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni eslab qolish va sharhlash.

31. Matnni oliy darajada tushunish …..?
A. matndan aniq tahriflangan tafsilotni topish;matnni boshida keltirilgan aniq bir xabarni topish va belgilash.

B. qahramonlarning harakatlarini aniq talqin qilish va oddiy tushuntirish bera olish;matndan ikki-uch aniq ma’lumotlarni ajrata olish.

C. matnni turli qismlarida yashiringan tafsilotlar mazmunini aniqlash;yaxlit bir matndan va murakkab jadvallardan kerakli ma’lumotlarni topish va sharhlash.

D. muallifning umumiy g’oyasini tushunish uchun matnning tafsilotlarini bog’lash; qahramonlarning his-tuyg’ularini, niyatlarini, maqsadlarini va xarakter xususiyatlarini tushunish uchun voqealar va xarakatlarni sharhlay olish ko`nikmalari mavjud bo`ladi;matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni eslab qolish va sharhlash. *

Mavzu raqami. 3.2.3
32. TIMSSda 4-sinflarda testni yechish uchun 72 daqiqa (tanaffus bilan 2 ta test 36 daqiqadan) va 8-sinflar uchun 90 daqiqa (tanaffus bilan 2 ta test 45 daqiqadan) vaqt ajratilgan. 4-sinf o'quvchilari uchun testning har bir variantida matematika va tabiiy fanlar bo'yicha 39-51 ta, 8-sinf o'quvchilari uchun esa 48-59 ta topshiriq belgilangan.

A.To‘g‘ri *
B.Noto’g’ri

33. TIMSSda 4-sinflarda testni yechish uchun 90 daqiqa (tanaffus bilan 2 ta test 45 daqiqadan) va 8-sinflar uchun 90 daqiqa (tanaffus bilan 2 ta test 45 daqiqadan) vaqt ajratilgan. 4-sinf o'quvchilari uchun testning har bir variantida matematika va tabiiy fanlar bo'yicha 50-52 ta, 8-sinf o'quvchilari uchun esa 55-65 ta topshiriq belgilangan.

A.To‘g‘ri
B.Noto’g’ri*

34. TIMSSda faktlar va protseduralarni bilish, tushunchalardan foydalanish, muntazam muammolarni hal qilish, tahlil qilish, farazlar, baholash, dalillar bilishi qaysi fan bo’yicha ko'nikmalari baholanadi?

A. Tabiiy fan bo'yicha

B.O’qish savodxonligi bo’yicha

C. Matematika bo'yicha *

D. Matematika va tabiiy fan bo'yicha

35. TIMSSda faktlarni bilish, kontseptual tushunish, analitik qobiliyat, umumlashtirish, rejalashtirish, o'rganish qaysi fan bo’yicha ko'nikmalari baholanadi?

A. Tabiiy fan bo'yicha

B.O’qish savodxonligi bo’yicha

C. Matematika bo'yicha *

D. Matematika va tabiiy fan bo'yicha

36. TIMSS xalqaro baholash dasturida “Qo’llay olish” sohasi…..iborat.

Modul raqami. **3.3**
Modul nomi: Ona tili va o‘qish savodxonligi darslariga zamonaviy yondashuvlar
Mavzu raqami. 3.3.1
Mavzu nomi. Boshlang‘ich sinflarda savodxonlik darslarini zamonaviy yondashuv orqali tashkil etish

37. Savod o‘rgatish deganda nima tushuniladi.

5. Elementar o’qish va yozishga o’rgatish *
6. Ifodali o‘qish
7. O‘qishga o‘rganish
8. Yozuv malakalarini shakllantirish

38. Yozuv malakasi qanday hosil qilinadi?

A. Yozuv malakasi ta`lim berish, ko`nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish asosida hosil qilinadi. *

B. Yozuv malakasi bu biz faoliyatimiz natijalari bo'yicha va yoki qo'lga kiritish jarayonida erishishni xohlayotgan narsaning ifodasidir.

C. Yozuv malakasi o`quvchilarga kompetensiyaviy yondashuvlar asosida dasturlar tayyorlash.

D. Yozuv malakasi ta`lim beruvchi, o`rganuvchi va tekshiruvchi mashqlar

39. Savod o'rgatish mashqlarining turlari qaysilar?

E. Analiz mashqlari, sintez mashqlari, artikulyasiya va burro talaffuz mashqlari.*
F. Tovush harf tahlili mashqlari.

G. Matnni gaplarga ajratish mashqlari, bo'g'inlami tovushlarga ajratish mashqlari
H. To'g'ri va burro tallafuz mashqlari.

40.Ona tili fanidan fanga oid kompetensiyalar nomlarini ko`rsating?

A. nutqiy, lingivistik. *

B. ijtimoiy, nutqiy

C. lingivistik, ijtimoiy

D. komunikativ, nutqiy

41. Savodxonlik darslarida qo`llaniladigan innovatsion vositalar

A. Elektron kitoblar va multimedia.*
B. Darsliklar va qo`shimcha adabiyot.
C. Yozuv taxtasi.
D. Badiiy adabiyot va multimedia.

42. XXI asr ko‘nikmalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

E. Tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot va hamkorlik.*
F. Faoliyatni yodlash qobiliyati
G. Faqat nazariy bilimlarni mustahkamlash
H. O‘qituvchining izohlarini qayta aytib berish

43. Ona tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qaysi usul samarali?

A. O‘quvchilar bilan savol-javob qilish orqali matnni tahlil qilish.*
B. Ona tili darslarida diktant yozdirish
C. Yodlash mashqlari
D. Shaxsiy ish daftari ustida ishlash
E. Darsni faqat o‘qituvchining tushuntirishiga asoslash

44. O‘quvchilarda muammolarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun qanday topshiriqlar beriladi?

A. Hayotiy vaziyatlarga oid muammolarni tahlil qilish va echim topish.*
B. Tayyor matnlarni o‘qitish
C. Tushunchalarni yodlatish
D. Matnni faqat talaffuz qilishni mashq qilish
E. Qayta hikoya qilish

45. XXI asr ko‘nikmalarining ijodkorlik ko‘nikmasini ona tili darslarida rivojlantirishning samarali usullaridan

A. Matn asosida insho yoki she’r yozishni topshirish.*
B. Yaxshi o`qish va qayta hikoya qilish
C. O‘quvchilarga tayyor javoblarni berish
D. Uy vazifasi uchun kitob o‘qitish

E. Yodlash orqali matn o‘zlashtirish

46. O‘quvchilarda muammolarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun qanday topshiriqlar beriladi?

A. Hayotiy vaziyatlarga oid muammolarni tahlil qilish va echim topish
B. Tayyor matnlarni o‘qitish
C. Savol-javob usulidan foydalanish
D. Tushunchalarni yodlatish
E. Matnni faqat talaffuz qilishni mashq qilish

47. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda interfaol usullarning asosiy maqsadi nima?

A. O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va faol ishtirokini ta’minlash.*
B. O‘quvchilarni majburiy tartibda o‘qishga undash
C. Asarni tahlil qilish
D. Faqat mustaqil o‘qishga o‘rgatish
E. Asarni to‘liq yodlatish

48. Qaysi interfaol usul badiiy asarni tahlil qilishda samarali hisoblanadi?

A. Klaster usuli, Tushunchalar tahlili, BBB.*
B. Nazorat testlari
C. Matnni yodlatish
D. Grafik masalalar

49. Badiiy asarni kichik guruhlarda muhokama qilishning afzalligi nima?

A. Har bir o‘quvchining tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlanadi
B. O‘quvchilar bir-biridan masalalarni ko‘chirib olishadi
C. O‘quvchining muloqotchanlik qobiliyati rivojlanadi
D. Barcha o‘quvchilar faqat o‘qituvchini tinglashadi
E. A va C javoblari to`g`ri

50. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda o‘yin texnologiyalarining roli qanday?

A. O‘quvchilarni faollikka undaydi
B. O`quvchilarni tarbiyalaydi
C. Faqat ko‘ngilochar maqsadda qo‘llaniladi
D. O‘quvchilarni qat’iy tartibga bo‘ysundirishga yordam beradi
E. Matnlarni yodlashni osonlashtiradi

51. Matn ustida ishlashning asosiy bosqichlari:

A. birinchi sintez → analiz → ikkinchi sintez.*
B. birinchi sintez → ikkinchi sintez →analiz
C. analiz → birinchi sintez → ikkinchi sintez
D. ikkinchi sintez →analiz → birinchi sintez
E. birinchi bosqich→ikkinchi bosqich→uchininchi bosqich

52. Boshlang‘ich sinflarda algebraik ifodalar qanday ta’lim mazmuniga kiritiladi?

9. Oddiy qo‘shish va ayirish amalidagi noma’lum son orqali.*

10. Kasr sonlarni qo`shishga kiradi
11. Murakkab algebraik tenglamalar orqali
12. Geometrik shakllar bilan birgalikda
13. Faqat grafik usulda

53. Boshlang‘ich sinflarda qaysi geometrik shaklni ta’riflashga ko‘proq e’tibor beriladi?

A. To‘g‘ri to‘rtburchak.*
B. Trapetsiya
C. Paralelogram
D. Romb
E. Aylana

54. Geometriyada aylananing radiusi bilan diametri orasidagi bog‘liqlik qanday?

A. Radius diametrdan 2 marta kichik.*
B. Radius diametrdan 2 sm katta
C. Radius diametrdan 2 marta katta
D. Radius va diametr teng
E. Radiusning qiymati tasodifiy

55. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik materiallarni o‘rgatishda qaysi interfaol usul samaraliroq?

A. Mantiqiy o‘yinlar.*
B. Tenglamalar
C. Murakkab algebraik masalalar
D. Test ishlash
E. Ilmiy tadqiqotlar

56. O’quvchilarni fikrining yo’nalishi bo’yicha metod turlari to’g’ri berilgan qatorni toping

A. Induksiya, deduksiya va analogiya *
B. Interfaol metodlar
C. Og’zaki, ko’rsatmali va amaliy
D. Qisman izlanish yoki evristik metod, o’qitishning tadqiqot metodi
E. Reproduktiv va produktiv metod

57. O‘yin texnologiyalarini qo‘llashning boshlang‘ich sinf matematika darslaridagi asosiy maqsadi nima?

A. Murakkab mavzularni sodda va qiziqarli qilib tushuntirish
B. Nazariy bilimlarni sinash
C. Amaliyotni mustahkamlash
D. Faqat o‘quvchilarning bilim darajasini baholash
E. Dars vaqtini qisqartirish

58. Matematik o‘yinlarda qanday materiallar ko‘proq ishlatiladi?
A. Kartochkalar, kubiklar va interfaol doska
B. Kitoblar va daftarlar
C. Diagrammalar
D. Faqat o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan savollar
E. Murakkab grafik chizmalari

59. O‘yin texnologiyalaridan foydalanganda qanday ko`nikmalar rivojlanadi?
A. Jarayonda hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, ijodiy fikrlash va tanqidiy fikrlar.*
B. O‘quvchilarga faqat topshiriq berish
C. Misol yechish ko`nikmalari shakllanadi
D. O‘quvchilarning mustaqil o‘rganishi
E. Tezda javob yozib, darsni tugatish

60. Geometrik shakllarni o‘rgatishda qanday o‘yinlar samarali?
A. "Shaklni top va joylashtir" o‘yini
B. Raqamlarni yodlash
C. Murakkab algebraik ifodalar bilan ishlash
D. O‘quvchilarni testdan o‘tkazish
E. BBB metodi

61. Algoritm nima?
A.Berilgan jarayonni amalga oshirish uchun qaysi elementar ishlarni va qaysi ketma-ketlikda bajarish lozimligini ko’rsatuvchi buyruq*
B. Al-Xorazmiyning nomi
C. Sanoq sistemasi
D.Matematika o’qitish Metodi
E. Tenglama yechish

62. Jadval bilan ishlashda asosiy maqsad nima?
A. Ma’lumotlarni tartiblashtirish va solishtirish
B. Matnli masalalarni yechish
C. Masala yechish osonlashadi
D. Faqat raqamlarni yodlash
E. Diagrammalarni chizish

63. Diagramma nima uchun ishlatiladi?
A. Ma’lumotlarni grafik ko‘rinishda taqdim etish uchun
B. Sonlarni oddiy yozishda
C. Arifmetik amallarni bajarishda
D. Faqat geometrik masalalarni hal qilishda
E. Sonlarning yodda qolishini ta’minlashda

64. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun diagrammalarning qaysi turi qulay?
A. Doira diagramma
B. Chiziqli diagramma
C. Grafikli

D. Gistograma
E. Yuqoridagi barcha javoblar

65. Jadvalda sonlarni tartiblashtirish qaysi mavzu bilan bog‘liq?

A. Sonlarning ketma-ketligi
B. Qo‘shish va ayirish
C. Ko‘paytirish va bo‘lish
D. Masala yechish
E. Algebraik tenglamalar

66. Diagramma va sxemalar bilan ishlashning zamonaviy shakllari qanday texnologiyalarga asoslanadi?

A. AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)
B. O‘yin texnologiyalari
C. Ijodiy ish
D. Matnli metodlar
E. Mantiqiy testlar

67. Mantiqiy masalani yechish bosqichlari qaysi reja asosida amalga oshiriladi:

A. o‘quvchilar tomonidan masala mazmunini o‘zlashtirish;
B. masalaning tahlil qilish va reja tuzish ;
C. masala yechish (amallar tanlash, ularni bajarish, yechishning borishini va hisoblashlarni yozish);
D. masala yechimini tekshirish
E. Barcha javoblar to`g`ri

68. Mantiq ilmining asoschisi kim?

A. Arastu.*
B. Arximed
C. Pifagor
D. Abu Rayxon Beruniy

69. Matematika darslarida mantiqiy topshiriqlardan foydalanish o`quvchilarni qaysi ko`nikmalarini rivojlantiradi?

A. O‘quvchining tafakkur qilish, kkreativ, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.*
B. O‘quvchilar bir-biridan masalalarni ko‘chirish ko`nikmalari
C. O‘quvchining muloqotchanlik qobiliyati rivojlanadi
D. Barcha o‘quvchilar faqat o‘qituvchini tinglashadi
E. Masala yechish ko`nikmalarini rivojlantiradi

70. "Matematik jumboq" o‘yinida qanday masalalar beriladi?

A. Barcha javoblar to`g`ri.*
B. Ko‘paytirish va bo‘lish
C. Geometrik shakllar haqida savollar
D. Sonlarning ketma-ketligini topish
E. To`g`ri javob yoq

71. Qanday sonni hech qanday matematik amal bajarmasdan cheksizlik belgisiga aylantirish mumkin?

A. 8 *
B. 4
C. 2
D. 10

72. -STEM yondashuvining asosiy komponentlari qaysilar?

A. Tabiiy fanlar, matematikalar, adabiyotlar
B.Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika*
C.Tabiiy fanlar, tarix, san'at, adabiyot
D.Fizika, kimyo, biologia, iqtisodiyot

73. STEM yondashuvi qanday maqsadga qaratilgan?

A. Faqatgina fizika fanini chuqur o'rganishga
B.Fanlarni alohida-alohida o'qitishga
C. Fanlar o'rtasida integratsiyani amalga oshirishga*
D. Yangi texnologiyalarni yaratishga

74. STEM o‘qitish - bu …

A. bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradigan innovatsion metod. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo‘lishimizga imkon beradigan ilg‘or kadrlar bazasini shakllantirishimiz mumkin.*
B. tabiiy fanlar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog‘liq kasb egalariga, bio va nanotexnologiya sohasi mutaxassislariga talabning ortib borishidir.
C. bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradigan innovatsion metod. Uning yordami bilan biz siyosiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo‘lishimizga imkon beradigan ilg‘or mutaxasisslar bazasini shakllantirishimiz mumkin.
D. O‘quvchilarga ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash imkonini beruvchi muhit yaratishdir.

75. Ta’limining asosiy xususiyati shundaki, bunda o‘quvchilar ko‘pchilik fanlarni samarali o‘rganishda aqlli hamda qo‘llaridan foydalanishadi, bilimlarni mustaqil “egallashadi”. O‘quvchilar o‘quv mashg‘ulotlarida tajribalar o‘tkazishadi, modellarni konstruksiyalaydi, musiqa va ilmlarni mustaqil yaratishadi, robotlarni yasashadi, ya’ni o‘z g’oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi.Gap qaysi yondashuv yoki texnologiya haqida ketayabdi?

A. ARIZ

B.TRIZ

C. STEAM*

D.Loyiha

76. STEAM ta‘limi dastlab qayerda qo‘llanilgan?

A. Buyuk Britaniyada
B. Germaniyada
C. AQSHda*
D. Finlandiyada

77. O‘quvchilarga mustaqil va xohishlariga ko‘ra, har xil manbaalardan zarur bo‘lgan bilimlarni olish; o‘zlashtirgan bilimlariga tayanib ilmiy va amaliy masalalar yechishga o‘rgatadi. Guruhlarda ishlab kommunikativ ko‘nikmalarini
shakllantiradi, tadqiqot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Gap qaysi metod haqida ?

A. Kuzatish

B.Ekskursiaya

C.Suhbat

D. Loyiha*

78. Loyiha chet tilidan olingan so‘z bo‘lib, u …. tilidagi “project” so‘zidan kelib chiqqan. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda «oldinga tashlangan» degan ma’noni beradi.

A.ingliz

B.yunon

C. lotin*

D. rus

79. Bu bosqichda o‘quvchi tadqiqot muammosiga tegishli adabiyotlar, maqola va qo‘shimcha ma‘lumotlarni o‘rganadi. O‘qituvchi kerakli adabiyotlarni, internet saytlarini tavsiya etadi. Bunday ishlar o‘quvchini kutubxonada ishlash, mustaqil ravishda kerakli ma‘lumotlarni qidirib topish, ma‘lumotlar orasidan keraklisini saralay olish kabi ko‘nikmalarni hosil qiladilar. Yuqoridagi fikrlar tadqiqot ishlarini olib borishni tashkil etishning qaysi bosqichiga oid?

A.Tadqiqot mavzusini tanlash va maqsadlarni belgilash.
B. Tadqiqotni rejalashtirish va metodlarini belgilash.*

C.Tadqiqotdan kutilayotgan natijani muhokama qilish va baholash, tadqiqot gipotezasini aniq ifodalash.
D.Tadqiqotdan kutilayotgan natijani muhokama qilish va baholash, tadqiqot gipotezasini aniq ifodalash.

80. O`rmonlar nafas olishimiz uchun zarur bo`lgan kislorod ishlab chiqaradi.Ba'zi katta daraxtlar yiliga 65 kilogrammgacha toza kislorod ishlab chiqara oladi.Bu bir kishining yil davomida nafas olishi uchun yetadi.Shuning uchun o`rmonlarni ko`pincha "Sayyoraning yashil …. "deb ataydilar.

A.Miyasi
B. Yuragi
C.O`pkasi*
D.Qon-tomirlari

81. O'quv yili mobaynida o'rganiladigan materiallar bilan bo'g'liq bo'lib, o'simliklarni ekish, parvarishlash, ko'paytirish, maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirish kabi ishlarni olib borishdan iborat jarayon tadqiqotchilik loyihalarining qaysi turiga mansub?

A. Nazariy – ekspress tadqiqotlar
B. Tajriba – sinov ishlari.
C. Mustaqil kuzatishlar olib borish.
D. Amaliy ishlar.*

82. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida inklyuziv ta`lim kiritib ketildi?
A. 50- moddasi*
B. 20- moddasi
C. 15- moddasi
D. 41-moddasi

83.Ta`lim to`g`risidagi qonunni qaysi moddasi inkluziv ta`lim moddasi hisoblanadi?
14. 20- moddasi. *
15. 15- moddasi.
16. 41- moddasi.
17. 50- moddasi.

84. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to`g`risida"gi qaror qachon qabul qilingan?

A. 2020-yil 13- oktyabrda,PQ 4860 sonli qaror.*

B. 2021-yil 13- oktyabrda, 638-sonli qaror.

C. 2021-yil 12- oktyabrda,PQ 4860 sonli qaror.

D. 2021-yil 12- oktyabrda, 638-sonli qaror.

85. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim berishga oid normativ – huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to`g`risida"gi qaror qachon qabul qilingan?

A. 2021-yil 12- oktyabrda, 638-sonli qaror.*

B. 2020-yil 13- oktyabrda,PQ 4860 sonli qaror.

C. 2021-yil 13- oktyabrda, 638-sonli qaror.

D. 2021-yil 12- oktyabrda,PQ 4860 sonli qaror.

86. Inklyuziv ta`lim nima?

A. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta`lim muassasalariga uyg`unlashtirish.*
B. Imkoniyati cheklangan bolalar maxsus ta`limi.

C. Umumta`lim muassasalarini imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirish.

D. Maxsus ta`limning alohida shakli.

87. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadi …..iborat.

A. o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan *
B. Texnologiya fani fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi amaliy fan bo‘lib, tabiiy fundamental fanlarning amaliy qismlari hisobiga tashkil topgan
C. Amaliy topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv orqali shakllantirishdan
D. o‘quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog‘lom qilib tarbiyalash, inson salomatligi to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishdan

88. Boshlang’ich ta’limda ……amaliy topshiriqlarni mazmunli tashkil etish talab etiladi
A.- ijtimoiy fanlardan
B. - filologiya fanlardan
C. -tabiiy , ijtimoiy fanlardan
D. – amaliy, tabiiy fanlardan *

89. O‘qituvchi ushbu bosqichni amalga oshirish uchun o‘quvchilarni savol berishga undaydigan rasm, jadval, grafik, model kabilarni ko‘rsatishi yoki mavzuga doir qanday hayotiy tajriba, tasavvur va tushunchalarga egaligi haqida savol berish

A. Diqqatni jalb qilish *
B. Tadqiq etish
C. Tushuntirish
D. Qo’llash

90. O‘qituvchi o‘quvchilarga ilmiy tadqiqot metodlari va mavzuga oid ilmiy tushunchalarni o‘rganishni taklif etadi. So‘ng ular guruhlarda ishlab, tadqiq etiladigan savollar qo‘yish qaysi bosqichda amalga oshiriladi?

A. Diqqatni jalb qilish
B. Tadqiq etish *
C. Tushuntirish
D. Qo’llash

91. Ushbu bosqichning maqsadi o‘quvchilarga yangi ilmiy tushunchalar va ko‘nikmalarni simulyatsiya, video, amaliy ishlar yoki boshqa raqamli va yozma manbalardan foydalanib yangi kontekstda qo‘llashga yordam berishdan iborat.

A. Diqqatni jalb qilish
B. Tadqiq etish
C. Tushuntirish

D. Qo’llash*

92. …… o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash,o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tan olish imkonini beradi.

A. O‘zini-o‘zi baholash

B. Kuchli va zaif tomonlarini tan olish

C. O‘zaro baholash

D. O‘quvchilar bilan muloqot

93. Boshlang’ich ta’limda ……amaliy topshiriqlarni mazmunli tashkil etish talab etiladi

A.ijtimoiy fanlardan

B. filologiya fanlardan

C. tabiiy , ijtimoiy fanlardan

D. amaliy, tabiiy fanlardan*

94. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadi …..iborat.

A. *o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan

B. Texnologiya fani fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi amaliy fan bo‘lib, tabiiy fundamental fanlarning amaliy qismlari hisobiga tashkil topgan

C. Amaliy topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv orqali shakllantirishdan

D. o‘quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog‘lom qilib tarbiyalash, inson salomatligi to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishdan

95. Boshlang’ich ta’limda ……amaliy topshiriqlarni mazmunli tashkil etish talab etiladi

A. ijtimoiy fanlardan

B. filologiya fanlardan

C. tabiiy , ijtimoiy fanlardan

D. *amaliy, tabiiy fanlardan

96. O‘yin texnologiyalaridan foydalanganda qanday ko`nikmalar rivojlanadi?

A. * Jarayonda hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, ijodiy fikrlash va tanqidiy fikrlar.

B. O‘quvchilarga faqat topshiriq berish

C. Misol yechish ko`nikmalari shakllanadi

D. O‘quvchilarning mustaqil o‘rganishi

97. Geometrik shakllarni o‘rgatishda qanday o‘yinlar samarali?

A. *"Shaklni top va joylashtir" o‘yini

B. Raqamlarni yodlash

C. Murakkab algebraik ifodalar bilan ishlash

D. O‘quvchilarni testdan o‘tkazish

98. Jadval bilan ishlashda asosiy maqsad nima?

A. *Ma’lumotlarni tartiblashtirish va solishtirish

B. Matnli masalalarni yechish

C. Masala yechish osonlashadi

D. Faqat raqamlarni yodlash

99. Diagramma nima uchun ishlatiladi?

A. *Ma’lumotlarni grafik ko‘rinishda taqdim etish uchun

B. Sonlarni oddiy yozishda

C. Arifmetik amallarni bajarishda

D. Faqat geometrik masalalarni hal qilishda

100. Jadvalda sonlarni tartiblashtirish qaysi mavzu bilan bog‘liq?

A. * Sonlarning ketma-ketligi

B. Qo‘shish va ayirish

C. Ko‘paytirish va bo‘lish

D. Masala yechish